



**BANKLARNING VUJUDGA KELISH TARIXI VA UNING BOSQICHA-
BOSQICH RIVOJLANISH JARAYONI**

Tursunova Farangiz Shokir qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Bank ishi fakulteti talabasi

E-mail: tursunovafarangiz954@gmail.com

Telefon: +998880065610

Annotatsiya : *Ushbu maqola O'zbekiston bank sektorida xizmat ko'rsatishni takomillashtirish va raqobatni kuchaytirish masalalarini o'rganadi Maqolada banklarning iqtisodiy hayotdagi roli va ahamiyati, ularning shakllanishi va rivojlanish tarixi bosqichlari o'rganilgan. Banklarning moliyaviy vositachilik funksiyasi, pul mablag'larini jalb qilish, saqlash va kreditlash kabi asosiy vazifalari tahlil qilingan. Shuningdek, banklarning geografik va umumiy ma'nolari ko'rib chiqilgan. Qadimgi dunyodan to hozirgi kungacha bo'lgan bank tizimining evolyutsiyasi, xususan, Mesopotamiya, Qadimgi Misr, Rim imperiyasi kabi qadimgi sivilizatsiyalarda bank faoliyatining ilk shakllari, O'rta asrlarda Italiya shaharlarida bankchilikning rivojlanishi, zamonaviy bank tizimining shakllanishi va hozirgi zamon banklarining xususiyatlari yoritilgan. Maqolada, shuningdek, O'zbekiston bank tizimining mustaqillik yillaridagi rivojlanish bosqichlari, Markaziy bankning roli va tijorat banklarining faoliyati tahlil qilingan. Iqtisodiy adabiyotlar, ibodatxonalar va diniy tashkilotlarning moliyaviy faoliyati ham qisqacha ko'rib chiqilgan. Maqola so'ngida banklarning faoliyati, modellashirish va texnologiyalar bilan bog'liq kelajakdagi rivojlanish tendensiyalari haqida xulosalar berilgan.*

Kalit so'zlar : *Banklar, moliyaviy vositachilik, iqtisodiy tizim, rivojlanish, barqarorlik, moliyaviy xizmatlar, depozitlar, kreditlar, pul o'tkazmalari, bank tizimi, qadimgi sivilizatsiyalar, Mesopotamiya, Qadimgi Misr, Rim imperiyasi, o'rta asrlar, Italiya shaharlari, Markaziy bank, Angliya banki, sanoat inqilobi, transmilliy banklar, internet banking, raqamlashtirish, kiberxavfsizlik, ijtimoiy ma'suliyat.*

Kirish. Banklar iqtisodiyotdagi asosiy moliyaviy vositachilardir. Shunga ko'ra, butun iqtisodiy tizimning izchil rivojlanishi banklarning faoliyati qanchalik barqaror va samarali tashkil etilganiga bog'liq. Avvalo "bank" so'ziga to'xtaladigan bo'lsak, u ko'p ma'nolarga ega, lekin eng asosiy va keng tarqalganlari quyidagilardir:

1. Moliyaviy institut sifatida bank- pul mablag'larini qabul qiluvchi, saqlovchi va qarz beruvchi tashkilot. Ular depozitlarni qabul qiladi, kreditlar beradi, pul o'tkazmalarini amalga oshiradi va shu kabi moliyaviy xizmatlarni taqdim qiladi.

2. Geografik ma'noda bank- suv havzalarinig qirg'oqlari yoki daryoning qirg'oqlari uchun ham bu so'z ishlatiladi.

3. Umumiy ma'noda esa bank- qandaydir narsa yig'ilgan yoki saqlangan joy.





Banklarning vujudga kelish tarixiga qaytsak, u uzoq o'tmishga borib taqaladi va ularning rivojlanishi iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Bu davrni 6 bosqichga bo'lishimiz mumkin:

- Dastlabki savdo va pul tizimlari. Insoniyat tarixida savdo- sotiq rivojlanishi bilan birga pul tushunchasi paydo bo'ldi. Dastlab odamlar tovarlarni almashtirish (barter) orqali savdo qilganlar. Lekin barter tizimi cheklangan va noqulay bo'lgani sababli, odamlar umumiy qabul qilingan qiymat o'lchovi sifatida puldan foydalana boshladilar.
- Dastlabki moliyaviy xizmatlar. Qadimgi sivilizatsiyalarda, masalan, Mesopotamiya, Misr, Qadimgi Yunoniston va Rimda odamlar o'z mol-mulklarini xavfsiz joyda saqlash uchun ibodatxonalar yoki maxsus joylarga joylashtirganlar. Bu joylar pulni saqlash va kredit berishning ilk shakllariga o'xshash xizmatlarni amalga oshirgan.
- Bank faoliyatining boshlanishi. Miloddan avvalgi 2000-1000-yillarda qadimgi Mesopotamiya va Rimda dastlabki bank tizimlari shakllana boshladi. Bu davrda savdogarlar va zodagonlar o'z mablag'larini saqlash va kredit olish uchun maxsus shaxslar yoki tashkilotlarga murojaat qilganlar.
- O'rta asrlarda bankchilikning rivojlanishi. XI-XV asrlarda Yevropada bank faoliyati yanada rivojlana boshladi, ayniqsa Italiya shaharlari ya'ni Venetsiya, Florensiya, Genuyada. Bu davrda savdogarlar va bankirlar savdo operatsiyalarini moliyalashtirish uchun kreditlar berishni boshladilar. Bu yerda banklarning asosiy vazifalari pulni saqlash, kredit berish va hisob kitoblarni yuritish bo'lgan.
- Zamonaviy bank tizimining shakllanishi XVII-XVIII asrlarda banklar rasmiy tartibga solindi va markaziy banklar paydo bo'ldi. Masalan, 1694-yilda Angliyada "Bank of England" tashkil topdi. Markaziy banklar davlat moliyasini boshqarish, pul muomalasini nazorat qilish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vazifalarini bajara boshladilar.
- Hozirgi zamon banklari. Bugungi kunda banklar nafaqat pul saqlash va kredit berish bilan shug'ullanadi, balki investitsiyalar, sug'urta, valyuta ayirboshlash, electron to'lovlar kabi ko'plab moliyaviy xizmatlarni ko'rsatadi. Bank tizimi murakkablashib, global iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylandi.

O'zbekistonda bank tizimining rivojlanishi haqida gap ketsa shuni aytishimiz mumkinki, bank tizimi mustaqillik yillarida shakllandi. 1991-yilda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tashkil etildi. Keyinchalik, tijorat banklari ham tashkil etila boshladi.

Hozirgi kunda O'zbekiston bank tizimi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim rol o'ynamoqda. Banklar korxonalarga kreditlar beradi, aholiga moliyaviy xizmat ko'rsatadi va xalqaro moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiradi.

Adabiyotlar sharhi. Ayrim iqtisodiy adabiyotlarda, dastlabki banklar ibodatxona (butxona)larda tashkil topganligi ta'kidlanadi. Ibodatxonalar hukumatning va diniy tashkilotlarning zaxira fondlari sifatida xizmat qilgan. Ularda oziq – ovqat zaxiralari va boshqa qimmatbaho buyumlar saqlangan. Keyinchalik ibodatxonalar to'lov vositalarini bajaradigan 194 oltin, kumush va boshqa qimmatbaho metallarni saqlash



bilan birga, pul muomalasini tashkil etish jarayonlarida ham bevosita ishtiroketishgan. Bunga 2011 yil iyulida Hindistonning ibodatxonalaridan birida yirik miqdorda oltin va boshqa boyliklarni topilganligini misol sifatida keltirish mumkin. Topilma juda katta miqdorga teng bo'lib, qachon va kim tomonidan qo'yilganligi ma'lum emas. Hozirgi paytda faoliyat yuritayotgan Markaziy bankka o'xshagan bank birinchi marta Stokgolmda 1650 yilda, keyinchalik 1694 yilda Angliyada tashkil topgan bo'lib, bu bank pul emissiyasini amalga oshirish, mamlakatda tijorat banklari faoliyatini tartibga solish kabi ishlarni bajargan. Banklar yirik savdogarlar, zargarlar va boshqa shaxslarning hisob – kitoblarini bajarish bilan birga, jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini jalb qilish asosida juda yirik miqdorda ssuda kapitalini jam g'aradilar, ushbu mablag' kredit sifatida iqtisodiyotning turli bo'g'inlariga yo'naltiriladi. Shu tariqa, kapitalistik jamiyatda “bank” deb yuritiladigan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi “korxona”lar tashkil topdi. Banklarning mohiyatiga iqtisodiy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud. “Bank” etimologiyasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, “bank” so'zi qadimgi fransuzcha “banque” va italiyancha “bansa” so'zlaridan paydo bo'lib, “almashtirish stoli” ma'nosini anglatishining guvohi bo'lamiz. Iqtisodiy adabiyotlarda, dastlabki Markaziy bank 1650 - yilda Shvetsiyaning Stokgolm shahrida tashkil etilganligi qayd qilingan. Ushbu bank oltin tangalar asosida depozit sertifikatlarini muomalaga chiqargan, mazkur depozit sertifikatlari butun shvetsiya hududida to'lov vositasini bajargan bo'lib, taqdim qiluvchiga oltin tanga berilishi bilan kafolatlangan. Dastlabki emission bank 1694 yilda Angliya banki sifatida tashkil etilgan bo'lib, ushbu bank muomalaga pullarni emissiya qilish va banklarning tijorat veksellarini ro'yxatga olish bilan shug'ullangan.

Tahlil va natijalar muhokamasi. O'zbekiston banklari milliy iqtisodiyotga ta'sir eta oluvchi qudratli tizimga aylangunga qadar uzoq evolyutsion rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Bu yo'lda qator qiyinchiliklarni yengib o'tishiga to'g'ri keldi. 1991 yilda qator banklar shakllana boshladi. Ular O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining o'zgaruvchan sharoitlarida faoliyat yuritib, zamonaviy ish uslublarini o'zlashtirgan holda tobora yangi qirralarga ega bo'la bordi. Bu qiziq jarayonni biz yillar kesimida tahlil qilib chiqamiz.

1991-1992 yillar banklar faoliyatiga doir qarashlarda chinakam burilish yillari bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi ikki darajali bank tizimining tarkib topishi va mamlakat Markaziy banki zimmasiga yangi vazifalar yuklanishi uchun asos bo'lib xizmat qildi. Uning oldiga pul muomalasini tartibga solish, tijorat banklari tizimi hamda to'lov tizimini shakllantirish vazifalari qo'yildi. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarini moliyalashtirish endi tashkil etiladigan, zamonaviy tamoyil va talablar asosida faoliyat yurituvchi ixtisoslashgan tijorat banklari tomonidan amalga oshirilishi lozim edi.

1997-yil. Ushbu yilda islohotlarning strategik yo'nalishlaridan biri bank sektorida xususiy kapital oqimini rag'batlantirishdan iborat bo'ldi. Mazkur jarayon 1997-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy tijorat banklarini tashkil qilishni rag'batlantirish





chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni e’lon qilinganidan so’ng jadallashdi. Unda jismoniy shaxslarning 50 foizdan kam bo’lmagan ulushi bilan banklar ochish uchun imtiyozlar taqdim etish ko’zda tutilgan edi. 1997-yil bank tizimining rivojlanish tarixida bank faoliyatida axborot tizimlarini joriy etish boshlangani bilan ahamiyatlidir. Ma’lumki, o’sha vaqtgacha respublika hududida amaldagi barcha hisob-kitoblar kun bo’yi olib borilar edi. 1997-yilning mart oyidan yangi dasturiy ta’minot joriy etilib, barcha hisob-kitoblar avtomatik rejimda amalga oshirila boshlandi. Bu esa to’lovlarni respublika tashqarisida 15 daqiqa mobaynida, Toshkentdan chekka joylarda atigi 3 daqiqada amalga oshirish imkonini berdi.

2000-2010 -yil Aynan o’sha vaqtda hisob-kitoblar mexanizmi ishlab chiqildi va banklararo elektron to’lovlarning zamonaviy tizimi joriy etildi. Banklarga o’sha vaqtdagi noyob imkoniyat — kompyuter va telekommunikatsiya uskunalarini xarid qilish va departamentlarni ular bilan jihozlash imkoniyati berildi. Ular mablag’larni o’z faoliyati uchun zarur uskuna-anjomlarni modernizatsiya qilishga yo’naltirishi hisobga olinib, qator soliq to’lovlaridan ozod qilindi. Shu tariqa, moliyaviy va iqtisodiy axborot ning sifat jihatidan yangi iste’molchilari – mahalliy va xorijiy investorlar paydo bo’ldi. Mazkur davr O’zbekiston bank tizimini mustahkamlashda salmoqli yutuqlarga erishilgani bilan ahamiyatlidir. Aynan shu yillarda zamonaviy infratuzilmaga ega samarali bank tizimini tashkil etish bilan bog’liq ishlar amalga oshirildi. Bank tizimi oldiga uning rivojlanish istiqbollarini belgilab beruvchi strategik vazifalar qo’yildi. Vazifalarning birinchisi banklar moliyaviy barqarorligini oshirish va ichki bozorda moliyaviy xizmatlar doirasini kengaytirishdan iborat bo’lsa, ikkinchisi — O’zbekiston banklarining xalqaro kapital bozorida faolligini ta’minlashdir. Mazkur davrda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov mamlakatimiz moliya-bank tizimini rivojlantirish, uning faoliyatini mustahkamlash va sifat jihatidan yaxshilash masalalariga yanada ko’proq e’tibor qaratdi. Shu munosabat bilan qator yetakchi banklar (“O’zsanoatqurilishbank”, “Asaka” banki va boshqalar)ning kapitallashuv darajasini oshirish bo’yicha muhim qarorlar qabul qilindi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mikrokreditbank” ustav fondini ko’paytirish to’g’risida”gi Farmoni mazkur bankni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashti rish bo’yicha asosiy kredit markazlaridan biri ga aylantirgan holda uning faoliyatini sifat jihatidan yanada yaxshiladi. Ushbu davrdagi har bir yil mamlakat bank-moliya tizimining izchil rivojlanishida yangi bosqich sifatida qayd etiladi.

Xulosa va takliflar. Banklar jamiyatning iqtisodiy hayotida muhim o’rin tutadi, moliyaviy vositachilik, investitsiyalarni rag’batlantirish va to’lov tizimini ta’minlash orqali iqtisodiy barqarorlik va o’sishga hissa qo’shadi. Banklarning tarixiy rivojlanishi ularning nafaqat moliyaviy institutlar, balki iqtisodiy o’zgarishlarning katalizatori sifatida shakllanganini ko’rsatadi. O’zbekiston bank tizimi mustaqillik yillarida sezilarli yutuqlarga erishdi, zamonaviy bank infratuzilmasi yaratildi, xalqaro standartlar joriy etildi va aholining moliyaviy xizmatlarga bo’lgan talabi qondirilmoqda. Biroq, global iqtisodiyotning o’zgaruvchan sharoitlari, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va yangi tahdidlar



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



O'zbekiston bank tizimi oldiga bir qator vazifalarni qo'yimoqda. Shularni inobatga olgan holda, quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

1. Raqamlashtirishni jadallashtirish: Bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali xarajatlarni kamaytirish, mijozlarga qulaylik yaratish va xizmatlar sifatini oshirish zarur. Bunda sun'iy intellekt, blokcheyn va katta ma'lumotlar kabi zamonaviy texnologiyalardan faol foydalanish lozim. 2. Moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish: Aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, qishloq joylarda yashovchi aholi va kichik biznes vakillari uchun moliyaviy xizmatlar qulayligini oshirish lozim. Bunda mobil banking, agentlik bank ishi va mikro moliyalashtirish kabi innovatsion yechimlardan foydalanish mumkin.

3. Risk menejmentini takomillashtirish: Banklar faoliyatida risklarni aniqlash, baholash va boshqarish tizimini takomillashtirish, kiberxavfsizlikni ta'minlash va bank sirini himoya qilish muhim ahamiyatga ega.

4. Kadrlar salohiyatini oshirish: Bank xodimlari uchun zamonaviy bank texnologiyalari, risk menejmenti, moliyaviy tahlil va mijozlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha doimiy ravishda malaka oshirish dasturlarini tashkil etish lozim.

5. Raqobat muhitini yaratish: Bank sektorida sog'lom raqobat muhitini yaratish, yangi banklar va moliyaviy tashkilotlarning kirib kelishini rag'batlantirish, xizmatlar sifatini oshirish va narxlarni pasaytirishga olib keladi.

6. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish: Bank sektorini rivojlantirish uchun qulay huquqiy va me'yoriy muhit yaratish, banklar uchun soliq imtiyozlari va preferensiyalarini joriy etish, kichik biznes va tadbirkorlikni moliyalashtirish dasturlarini qo'llab-quvvatlash lozim.

7. Ijtimoiy mas'uliyatni oshirish: Banklar o'z faoliyatida atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish kabi ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga amal qilishi zarur.

Ushbu takliflarni amalga oshirish O'zbekiston bank tizimining yanada barqaror, samarali va raqobatbardosh bo'lishiga, mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishiga va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Деньги, кредит, банки: Учебник/Кол. авт. Под ред. О.И.Лавшурина. М.: КНОРУС, 2007. С.319 – 324.

2. Compton, Eric N. Principles of banking. Library of Congress. Printed in the USA. Fourth edition,

3. 1991. P. 8 – 9.

4. .Duglas X. Bankovskaya politika v oblasti kreditovaniya. – M.: Slovo, 1971. – 508 s.

5. Derek F. Global'naya strategiya bankov. – M.: Ekonomika i finansy, 1990. – 385 c.

6. cbu.uz sayti

7. "Pul va banklar" darslik Omonov

8. "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonuni.